

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Safarova Nigora Nasilloyevna

Buxoro davlat universiteti erkin izlanuvchisi

Email: safarovanigora28@gmail.com

ANNOTATSIYA

O‘qituvchining pedagogik mahorati, uning malakasi, pedagogik qobiliyati pedagogik kompetensiyaning oshishiga sezirarli ta’sir ko‘rsatuvchi usullaridan biri bu doimiy kasbiy ta’lim malakalarini oshirib borishdir. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi pedagogik shart-sharoitlar, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati, kompetentsiyaga asoslangan yondashuv tamoyillari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy jadallahuv jarayoni, tashabbus, Zamonaviy va ilg‘or ta’lim texnologiyalari, raqamli texnologiyalar.

Ma’lumki, bugungi kun ijtimoiy jadallahuv jarayonida insonlar o‘z ish faoliyatları va kundalik turmush tarzini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qila olmaymiz. Shuningdek, san’at sohasi ham faqar amaliy ijodkolik bilan rivoj topsada hozrgi zamon talabidan kelib chiqqan holda usta rassomlar o‘z vaqtlarini tejash va shogirdlariga tez va oson tushuntirish va o‘rgatish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish va xorijiy tilni bilishi bugungi kun talabi bo‘lib qolmoqda.

Yangi davrga qadam qo‘yish asnosida yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev tashabbuslari bilan keng fikrlash doirasiga ega, bilimlarni chuqur egallagan, sohasida yetuk va davr talabiga javob bera oladigan shaxslarga bo‘lgan etibor ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida qayta isloq qilingan va sifatli tashkil etilgan ta’limni joriy etish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi.

Malakali kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj ishlab chiqarish korxonalari paydo bo‘lgan, sanoat sohasi rivojining ilk bosqichlarida yuzaga kelgan bo‘lsada, hanuzgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. Buning asosiy sabablari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga bog‘liq ravishda yangidan-yangi yo‘nalishlar, ixtisosliklarning paydo bo‘lishi, ular bo‘yicha kadrlar tayyorlash zaruriyatining vujudga kelishi, o‘zgaruvchan, tezkor davrda mutaxassislarning kasbiy bilim, malaka va mahoratlarini izchil ravishda oshirib borishga bo‘lgan ehtiyojning

shakllanishi, shuningdek, mutaxassis sifatida mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardosh bera olishga bo‘lgan talabning ortishi sanaladi. Shunday bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ularga faqat ijoddiy qobiliyatini o‘stirishga e’tibor qaratmasdan ularga zamonaviy texnologiyalardan faolyatlri jarayonida foydalanish kompetensiyalarini ham o‘rgatish zarurdir.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’at fanini o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda nafaqat san’atga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, o‘quvchida nafosatni shakllantirishga ko‘maklashadi balki, ulardan olingan bilimlarni uzoq vaqt yodda saqlab qolish hamda kelajakka oid bilim va malakalarni shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, yangi bilimning aktualligi u o‘zlashtirilgan davrdan boshlab 3-5 yilni tashkil qiladi. Raqamli qurilmalardan unumli foydalanish esa mustaqil izlay olish, kerakli ma’lumotni qisqa muddat ichida qidirib topish, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida muntazam fikr almashib turish kabi imkoniyatlarni yaratib berish orqali ma’lumotlarni muntazam takrorlanib turishini ta’minlaydi va shu orqali talabalarda “mustahkam bilim” shakllanishini ta’minlaydi.

Xususan talabalarga multfilm yaratilish jarayonlari aks ettirilgan videoroliklar ko‘rsatilsa, multfilm qahramonlarining ijobiy va salbiy xislatlari, ranglar va chiziqlar plastikasining jozibadorligi hamda uning yaratilish jarayonidagi qiziqarli va mashaqqatli rassom mehnatidan talabalar ilgayidi va taassurotga ega bo‘ladilar. Bu esa kitob grafikasi fanining zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

T.E. Isaeva tomonidan XXI asr o‘qituvchisining kasbiy-shaxsiy kompetensiyasining mazmuni batafsil ta’riflangan va asoslab berilgan. Muallif kompetensiyalarni quyidagicha guruholagan:

moslashuvchan-zamonaviy kompetensiyalar;

ijtimoiy kompetensiyalar;

ijtimoiy-tashkiliy kompetensiyalar;

kasbiy (maxsus fanlar hamda xususiy metodika bo‘yicha) kompetensiyalar—o‘qitiladigan fanning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va o‘qituvchining o‘ziga xos bo‘lgan pedagogik tizimiga moslab tanlanadigan bilim, ko‘nikmalar, o‘qitish metodlari, kasbiy- korporativ tajribani uzatish usullarining majmui; kommunikativ kompetensiyalar qadriyatlarga asoslangan har qanday sharoitda ham insonning “o‘zligini” saqlab qolishini ta’minlaydigan.

Zamonaviy tadqiqotchilar oliy ta’lim muassasalari bitiruvchisining kompetensiyasini tasniflashga katta e’tibor qaratmoqdalar. Masalan, T.E. Isaeva o‘zining “XXI asr menedjerining tayanch kompetensiyalari” kursida quyidagi tayanch

kompetensiyalarni ajratib ko‘rsatadi: strategik; ijtimoiy; funksional; boshqarish; kasbiy Zamonaviy pedagogik amaliyotda “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari vujudga kelishining asosiy jihatlarini ta’riflashning imkonи bo‘lmagani kabi, mazkur maqola doirasida ham ularni tasniflashning batafsil tahlilini berib bo‘lmaydi. Biroq, bunda asosiy yo‘nalishni aniqlab olish muhimdir:

a) oliv ta’lim muassasalari bitiruvchilari uchun eng muhim deb e’tirof etilgan kompetensiyaning mazmunini aniqlashtirish;

b) zamonaviy oliv ta’limda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning asosiy yo‘llari va vositalari, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

➤ talabalarning kasbiy yo‘naltirilganlik darajasini, kasbiy yo‘naltirilganligini va tayyorgarligini, individual xususiyatlarini, shaxsiy qiziqishlari va imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda tanlab olish uchun taklif etiladigan muammoli-vaziyatli topshiriqlarning variativligi (murakkablik va mustaqillik darajasiga ko‘ra variativlik);

➤ ishni bajarishning jamoaviy (talabalar guruhi) va individual shakllarini uyg‘unlashtirish asosida talabalarning mustaqilligini rivojlantirish;

➤ talabalarning bajargan ishlarini va kasbiy tayyorgarlik darajalarini o‘zaro tekshirishlarini, o‘z-o‘zini nazorat etishlarini va tahlil etishlarini rag‘batlantirish;

➤ talabalarni ijodiy faoliyatning turli shakllariga va o‘z-o‘zini boshqarishga keng jalb etish;

➤ talabalarning respublika va oliv ta’lim muassasasi miqyosida tashkil etilayotgan ma’naviy va madaniy tadbirlerda faol ishtirok etishlari.

Oliv ta’lim muassasasi axborot manbai sifatida emas, balki ma’naviy-madaniy qadriyatlarning milliy va umuminsoniy tamoyillari bilan talaba orasidagi vositachi vazifasini bajargan taqdirdagina, birinchidan, talabaning shaxsiy qiziqish, ijodkorlik, muloqot, o‘qish va bilimlar orttirish faoliyatlarini o‘z ichiga hayot faoliyati sifatidagi, ikkinchidan, madaniyatning bugungi kundagi holati va tarixiy rivojlanishini egallashning usuli sifatidagi o‘quv jarayoni mutaxassisning kasbiy kompetentliligin rivojlantirishning real shart-sharoitlariga aylanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga ta’lim va tarbiya berishda nafaqat ta’lim oluvchiga ta’limning yo‘naltirilishi, balki o‘qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi muhimdir. Bunday hollarda o‘qituvchining kasbiy kompetentlik darajasiga alohida e’tibor qaratishni talab etadi. Ta’lim tizimida kompetentli yondoshuv ta’lim islohatlarining konseptual asoslari sifatida qabul qilinishi, ta’lim tizimiga kompetentli yondoshuvning joriy etilishi ta’lim maqsadi, mazmuni, o‘qitish shakli, o‘qitish usullari, pedagogik va axborot texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi rolida jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. O‘qituvchining

kasbiy kompetentligini tarkib toptirish uchun pedagogik oliy ta'limda tub o‘zgarishlarni amalga oshirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Исаева Т.Е. Классификация профессионально-личностных компетенций вузовского преподавателя. – М.: Педагогика. – 2005.
- 2.Исаева Т.Е. Классификация профессионально-личностных компетенций вузовского преподавателя. – М.: Педагогика. – 2005.
- 3.Абдуллаева, У. Т. (2021). Мектеп оқушыларына еліктеу сөздер туралы түсінік тақырыбын өтуде резюме технологиясын қолдану. Кластер педагогического образования проблемы и решения, 1(2), 1181-1183.
- 4.Kuralov, Y. A., (2021). Elektron ta’lim tehnologiyasi. Academic research in educational sciences, 2(3), 787-790.
- 5.Kuralov, Y. A., (2022). Oliy talim muassasalarida oqitish texnologiyalarini innovatsion klaster usuli yordamida takomillashtirish. Academic research in educational sciences, 3(1), 679-685.